

## INGLIZ TILINI O'ZLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNALOGIYALARINING AHAMIYATI

**Qurbonova Farzona Toymurod qizi**

*Muhammad al-xorazmiy nomidagi TATU Nurafshon filiali  
Kompyuter injineriing fakulteti Telekamunikatsiya texnologiyalari  
yo'nalishi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola ingliz tilini o'zlashtirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyatini o'rganib chiqqan holda tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqolada ingliz tili o'rganish jarayonida ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni samarali usullarini ko'rib chiqadi. Va ingliz tilini o'zlashtirishda ta'lim texnologiyalarini o'rni yuzasida ma'lumot hamda takliflar berib boradi.*

**Kalit so'zlar:** *ingliz tili, o'zlashtirish, ta'lim texnologiyalari, ahamiyati, metod*

## THE IMPORTANCE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN LEARNING ENGLISH

**Abstract:** This article analyzed the importance of educational technology in learning English. In addition, the article discusses effective methods of learning English. By learning English, he provides information and suggestions based on learning technologies.

**Keywords:** *English, assimilation, educational technologies, importance, method*

## ВАЖНОСТЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

**Аннотация:** *Эта статья проанализировала значение образовательных технологий в изучении английского языка. Кроме того, в статье рассматриваются эффективные методы изучения английского языка. Изучая английский язык, он дает информацию и предложения на основе технологий обучения.*

**Ключевые слова:** *английский язык, усвоение, образовательные технологии, важность, метод*



## KIRISH

Xabarimiz borki, shu yili prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida 2021-yildan chet tili o'qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi kiritilishi haqida ta'kidlangandi. Bu esa biz chet tili o'qituvchilarining yelkasiga ulkan mas'uliyatni yuklaydi. Endi an'anaviy dars metodlari o'rniga yangi AKTdan foydalangan holda interfaol usullar asosida dars jarayonini tashkil qilishimiz lozim. Bu ta'lim davr talabi ham bo'lib, o'qituvchini o'z ustida yana ham ko'prok ishlashga to'g'ri keladi. Maqolada ham dars o'tishning yangi usullariga e'tibor qilar ekanmiz avvalo, bu usullarning turi va samarasiga e'tibor qaratish lozim. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratilmoqda. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshdi. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berildi.

## MUHOKAMA

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

1. Interaktiv darslar: Bu usulda, ta'lim texnologiyalari interaktiv darslar taqdim etadi. Bu darslar o'quvchilarga o'zlarining o'zlashtirish jarayonida aktiv ishtirok qilish imkoniyatini beradi. O'quvchilar darsni mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun bilimlarni sinovdan o'tkazish, testlarda ishtirok etish yoki interaktiv o'yinlar orqali amaliy mashg'ulotlarga o'tishlari mumkin.

1. Online resurslar: Ta'lim texnologiyalari, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun online resurslarga kirish imkoniyatini yaratadi. Bu resurslar orqali o'quvchilar foydalanishlari mumkin bo'lgan onlayn kurslar, videolar, audiolar, kitoblar va boshqa ma'lumotlarga erishishlari haqida imkoniyat beradi. Bu usul o'quvchi o'ziga qulay va kerakli ma'lumotlarni topishda va o'rganishida yordam beradi.

2. O'quv jarayonini avtomatlashtirish: Ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonini avtomatlashtirishga yordam beradi. Bunda o'quvchilar testlarda ishtirok etish, oxirgi natijalarni baholash, sintezlash va analiz qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu usul o'qituvchilar uchun ham vaqt va kuchni



tejashda yordam beradi, ular o'quvchilarning baho va natijalarini o'rganishda san'ashda va taqsimlashda yordam beradi.

3. Kommunikatsiya vositalari: Ta'lim texnologiyalari, o'quvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani ham yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Bu usul online darslar, video-konferensiyalar va chat o'rtasidagi muloqot imkonini beradi. Samarali foydalanish jarayonida ta'lim texnologiyalardan bir qancha usullarni birgalikda qo'llash o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada samarali va foydali qiladi. Bu usullar o'quvchilarga motivatsiya berib, amaliy mashg'ulotlarini oshirib, alohida ma'lumotlarni topishda yordam beradi va ularning kommunikatsiyalarini yaxshilaydi.

Ilg'or metodlar chet tilini puxta o'zlashtirishda kompos vazifasini o'taydi. Shunday metodlardan biri bu dars jarayonida rolli o'yinlardan foydalanishdir. Rolli o'yinlar bu real hayotimizdagi turli situatsiyalarni chet tili o'rganish jarayonida qo'llashdir. Bu metod dars jarayonida til muhitini yaratishga yordam beradi. Masalan: 1-holatda tasodifan eski dugonalar uchrashib qolishadi. 2-holat Yo'ldan o'tayotib yo'l qoidasiga rioya qilmagan bolani ya'ni o'tish bo'lmagan yo'lni kesib o'tadi. 3-holat. Magazinda oziq ovqat olish uchun xaridor kiradi. 4 Ushbu situatsiyalar bo'yicha sahna ko'rinishlari ijro etiladi. Bunday hayotiy rolli o'yinlar dars jarayonida til muhitini yaratadi, talabalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi. Rolli o'yinlarda ishtirok etish jarayonida talabalar fikrlashga o'rganadilar, o'z emosional holatlarini chet tilida erkin ifodalay olishga o'rganadilar. Rolli o'yinlarga tayorgarlik jarayonida bir-birining leksik, grammatik va talaffuzdagi xatolarini to'g'irlaydilar. Xato qilib va shu xatoni to'g'irlash ham tilni o'rganishga yordam beradi va talabalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatadi. Dars jarayonida rolli o'yinlardan foydalanish bir vaqtning o'zida barcha talabalarni darsda aktiv ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari rolli o'yinlar talabalarning chet tilini o'rganishga qiziqishini oshiradi va dars jarayoniga jonli, quvnoq muhitni yaratadi. Bu esa chet tili darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Keyingi metod bu «Keys-stadi» bo'lib inglizcha, («case» - aniq vaziyat, hodisa, «study» — o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

### **XULOSA**

Siz bilan bo'lgan maqolada ta'lim texnologiyalari ingliz tilini o'zlashtirishda o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yaratiladigan imkoniyatlardan, motivatsiyani oshirishdan, interaktivlikni oshirishdan va o'rganish jarayonini avtomatlashtirishdan bahs olindi. Ta'lim texnologiyalari



bu sohalarda hamkorlik qilishga yordam beradi va o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini samarali va foydali qiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <file:///C:/Users/user/Downloads/chet-tilini-o-qitishda-yangi-texnologiyalardan-foydalanishning-ahamiyati-va-samaradorligi.pdf>
2. <https://moluch.ru/archive/309/69718/>
3. Jamol Jalolov chet til O'qitish metodikasi, O'qituvchi // nashriyot-matbaa ijodiy uyi toshkent - 2012

